

2023-yil 20-noyabr

## “O'zkimyosanoat” AJda “Ma'naviyat marafoni” bo'lib o'tdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayram tadbiridagi nutqida “Biz bir bo'lsak- yagona xalqmiz, birlashsak-vatanimiz!” g'oyasini ilgari surgan edi. Shu munosabat bilan joylarda milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng islohotlar va vatanparvarlikni keng targ'ib qilish maqsadida “Biz bir bo'lsak-yagona xalqmiz, birlashsak-vatanimiz!” shiori ostida “Ma'naviyat marafon”larini o'tkazib borish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, Qonun bilan bayroqqa nisbatan hurmatsizlik qilish holatlari aniq belgilandi, xususan:

- bayroqdan va uning tasviri tushirilgan belgilardan yirtilgan, ifloslangan, teshilgan, rangi oqargan holda va boshqa nomaqbul tarzda foydalanish;
- kiyim-kechak, dastur'mol yoki ko'rpaga to'shak sifatida, buyumlarni saqlash va tashish uchun foydalanish;
- biror-bir narsa uchun ustki yoping'ich sifatida foydalanish;
- bayroq tasviri tushirilgan belgilarni poyabzal, dastur'mol, ko'rpaga to'shak, ichki kiyim-kechakga, sochiqlarga, qutilarga (o'rvilarga), bir marta foydalanish va tashib yuborish uchun mo'jalangan buyumlarga bosh chiqarish yoki uning tasvirini boshqacha tarzda tushirish;
- stollarga, o'rindiqlarga, stullarga to'shash yoki tasvirlash, undan qoplama sifatida foydalanish, o'tiriladigan boshqa joylarga yoki oyoq ostiga to'shash yoki tasvirlash;
- bayroq va uning tasviri tushirilgan belgilardan odob-ahloq qoidalarini va jamiyatda yurish-turish qoidalariga zill ravishda foydalanish mumkin emas.

"O'zkimyo sanoat" AJda bo'lib o'tgan "Ma'naviyat marafoni"ning ilk kuni 18-noyabr O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kunga bag'ishlandi. Tadbirda Jamiyat Yuridik boshqarmasi yetakchi yuristkonsulti Usmon Aliyev shu yili "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonunga kiritilgan o'zgartirishlar va yangiliklar haqida tadbir ishtirokchilariga taqdimot qilib batafsil ma'lumotlar berdi. Jumladan, bayroq va uning tasviri tushirilgan belgilardan jamoat joylarida, binolarda, yashash yoki ish joylarida transport salonlarida foydalanishga ruxsat etilganligi ta'kidlandi.



“O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi maslahatchisi Sanobar Abduraxmanova so‘zga chiqib, jamiyat xodimlarini “Ma’naviyat marafoni” doirasida tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faollikka chaqirdi.



"Uzkimyosanoat" AJ  
MATBUOT XIZMATI



**source:**

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajda-ma-naviyat-marafoni-bo-lib-o-tdi>